

orientations¹²¹. This productivity advantage reflects, in part, better capital allocation. Institutional investors' ownership significantly influences corporate innovation investment, with positive effects particularly pronounced in non-state-owned enterprises and high-technology sectors.¹²² By directing capital toward innovative, productivity-enhancing activities, institutional investors help enterprises build the operational resilience necessary to absorb financial shocks. A critical dimension of institutional investment's contribution to real sector risk management is the facilitation of access to over-the-counter (OTC) derivatives and other hedging instruments. These instruments, including interest rate swaps, currency forwards, commodity futures, and credit default swaps, enable enterprises to transfer specific financial risks to counterparties better positioned to bear them.

The evidence surveyed in this study supports the proposition that institutional investment mechanisms, when appropriately structured and regulated, represent a powerful complement to enterprise-level risk management in the real sector. Institutional investors contribute through multiple channels: supplying patient, long-term capital that reduces financing risk; engaging in corporate governance to reduce agency costs and information asymmetries; facilitating access to derivatives and hedging markets; and promoting the adoption of sophisticated enterprise risk management frameworks.

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATINING AHAMIYATI

Abdullayev Suxrobiddin Ismoilovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti "Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Tijorat banklari xalqaro moliyaviy amaliyotda nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya va emissiya operatsiyalarini amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar sifatida maydonga chiqadi, balki mazkur bozorga investorlardan, ayniqsa aholidan moliyaviy mablag'larni jalb qiluvchi va ularni samarali qayta taqsimlovchi "moliyaviy kanal" sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozori global savdo platformalari orasida eng rivojlangan maydonlardan biri bo'lib, unda har kuni minglab kompaniyalar faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar iqtisodiy foyda olish maqsadida o'z mablag'larini mazkur bozorga investitsiya qilish orqali o'z ulushlarini kiritadilar. Shunday qilib, globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida, ushbu masala nafaqat mahalliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon fond birjalari federatsiyasi, Markaziy banklar – megaregulyatorlar, va tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini tartibga soluvchi institutlar tomonidan emitentlar va investorlar o'rtasida raqobat, ishonch, moliyaviy barqarorlik,

¹²¹ Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Institutional Ownership, Common Ownership and Firm Productivity. OECD Economics Department Working Papers, ECO/WKP(2023)23. Paris: OECD Publishing. Retrieved from [https://one.oecd.org/document/ECO/WKP\(2023\)23/en/pdf](https://one.oecd.org/document/ECO/WKP(2023)23/en/pdf)

¹²² ScienceDirect / Elsevier. (2024). Institutional investors' shareholding, corporate governance, and corporate innovation investment. International Review of Economics & Finance. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S105905602400635X>

hamda shaffof ishtirokni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan¹²³. Ushbu tadqiqotlar natijasida banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari bilan bog'liq xavflarni kamaytirish, likvidlikni tartibga solishni takomillashtirishga oid qoidalar va me'yorlar ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan, qimmatli qog'ozlar bozorida narxlarning keskin o'zgarishi, investorlar ishonchining pasayishi va xavf darajasining oshishi, shuningdek, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining likvidligi va rentabelligi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash masalalari hanuzgacha o'zining ilmiy yechimini topmagan. Ayniqsa, likvid mablag'larning yetishmasligi, iqtisodiy-moliyaviy vaziyatning izdan chiqishi, va banklarning bankrotligi kabi masalalar chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

O'zbekistonda moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organlarning moliya bozorining zamonaviy vositalarini joriy etishdagi rolini kuchaytirish, bank tizimini isloh qilish strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish orqali banklar o'rtasidagi tabiiy raqobatni chuqurlashtirish va ularning faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish orqali mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'laqonli namoyon etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ayni davrda moliya bozorlari murakkab va ko'p qatlamli tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lib, ular tarkibiga pul bozori, kredit bozori, valyuta bozori, fond bozori, investitsiya bozori, sug'urta bozori va boshqa moliyaviy bozorlar kiradi. Tijorat banklari esa nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorining, balki moliya bozorining barcha tarkibiy tuzilmalarining faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari bir vaqtning o'zida emitent sifatida emissiya operatsiyalarini va investor sifatida investitsiya operatsiyalarini amalga oshiradi. Shuningdek, ular emitent va investorlarning talablariga binoan moliyaviy vositachi sifatida qimmatli qog'ozlarni sotish, sotib olish va joylashtirish operatsiyalarini ham bajaradi¹²⁴.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida emitent va investor sifatida ishtirok etishiga bozor iqtisodiyoti munosabatlari va tamoyillari asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi, bu bozorlarning rivojlanishi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ushbu bozorda ishtirok etishi iqtisodiyotni boshqarish qoidalari, tamoyillari va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.¹²⁵

tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan;

tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini amalga oshirish va bu boradagi faoliyatini tartibga solishga imkon beruvchi huquqiy baza hozirgi kunga qadar yetarli darajada shakllantirilmagan;

tijorat banklarining jami kapitali tarkibida davlat ulushining yuqori bo'lishi ularning ushbu sohadagi iqtisodiy manfaatdorligini kamaytiradi;


emitentlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi mavqei va brendi yetarlicha shakllanmagan, ayniqsa davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklarida. Tijorat

¹²³ O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni

¹²⁴ A.Norov. "Bank ishi asoslari" darslik TDIU - 2022. 284b (142-b)

¹²⁵ Xudayqulov. X. X. "Moliya bozori va instrumentlari" darligi TDIU.: 2022-yil. 74 b

banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati juda keng qamrovli va ko'p qirrali bo'lib, ularni emissiya qilish, investitsiya kiritish va vositachilik qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar banklarning likvidligi, daromadlarini oshirish, va risklarni boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi.



1-rasm. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar¹²⁶

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat banklarning investitsion faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mijozlarga kengroq moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga xizmat qiladi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda tijorat banklari davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar hamda boshqa moliyaviy vositalardan foydalanadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ko'p qirrali va murakkab tizim bo'lib, u bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: emissiya, investitsiya, va vositachilik operatsiyalari. Ushbu yo'nalishlarning har biri banklar uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning umumiy moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi O'RQ-582-sonli Qonuni. (Yangi tahriri) 2019-yil 11-noyabr.*
2. *O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni. (Yangi tahriri) 2019-yil 5-noyabr*
3. *O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.*
4. *O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.*
5. *Xudayqulov. X. X. "Moliya bozori va instrumentlari" darligi TDIU.: 2022-yil.*
6. *A.Norov. "Bank ishi asoslari" darslik TDIU - 2022. 284b (142-b)*

¹²⁶ Muallif tamonidan shakllantirildi